


ISSN 3030-3370

№ 1 (4) 2024



# AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL  
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL



<https://buxdu.uz>



ISSN 3030-3370

**“AYNIY VORISLARI”**  
xalqaro elektron jurnal

**«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»**  
международный электронный  
журнал

**“AYNIY’S SUCCESSORS”**  
international electronic journal

**№ 1 (4) 2024**

## TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

*Abuzalova Mehriniso Kadirovna,  
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori  
Avliyoqulova Lola Bebutovna,  
BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika  
kafedrasi o'qituvchisi  
E-mail: [lolaavliyoqulova1@gmail.com](mailto:lolaavliyoqulova1@gmail.com)*

### BADIIY MATNNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

**Annotatsiya:** matnning hissiyotlilik xususiyati insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini o'ziga xos tarzda ifodalasa, psixolingvistika matnning aynan shu xususiyatiga e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada insonlarning nutqiy jarayonlarini psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishda badiiy matnlarga tayanildi. Turli asarlardan olingan parchalar asosida matnning psixolingvistikasi – matn uni idrok etuvchilar ongida qanday mavjudligini o'rganishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, hissiylik, psixolingvistik tahlil, nutq, lingvistik xususiyatlar, leksik noaniqlik, kognitiv jarayonlar.

**Аннотация:** если эмоциональный характер текста уникальным образом выражает внутренние переживания человека, его отношение к действительности, то психоллингвистика акцентирует внимание именно на этом аспекте текста. В данной статье на основе художественных текстов анализируются речевые процессы человека с психоллингвистической точки зрения. На основе отрывков из различных произведений была предпринята попытка изучить психоллингвистику речи – то, как текст существует в сознании того, кто его воспринимает.

**Ключевые слова:** литературный текст, эмоции, психоллингвистический анализ, речь, лингвистические особенности, контекст, лексическая неоднозначность, когнитивные процессы.

**Abstract:** if the emotional character of the text expresses the inner experiences of a person, his attitude to reality in a unique way, psycholinguistics focuses on this particular character of the text. This article relied on literary texts to analyze human speech processes from a psycholinguistic point of view. Based on excerpts from various works, an attempt was made to study the psycholinguistics of speech – how the text exists in the minds of those who perceive it.

**Keywords:** literary text, emotion, psycholinguistic analysis, speech, linguistic features, context, lexical ambiguity, cognitive processes.

**Kirish.** Ma'lumki, mavjud bir qancha fanlar bitta umumiy obyektga ega bo'lishi mumkin. Biroq, ular mavzu jihatdan bir-biridan farqlanadi. Bu esa obyektning qay jihatdan o'rganishga bog'liqdir. Shu o'rinda inson tibbiyot, psixologiya va lingvistika kabi bir qancha fanlarning o'rganish obyekti bo'lib, har bir fan unga o'z pozitsiyasi nuqtayi nazaridan yondashadi. Shu o'rinda psixologiya va lingvistika kesimida yuzaga kelgan psixolingvistika fani til va til belgilari tizimining ishlash jarayoni, ya'ni insonlar tomonidan til belgilarini yaratish va idrok etish jarayoni bilan shug'ullanadi. Bunda faqatgina til belgilari tizimi va uning qurilish tamoyillariga emas, balki nutqni shakllantirish va idrok etish jarayoni ham muhim sanaladi. Ushbu fan uchun insonning nutqiy qobiliyati, til belgilari bilan bir qatorda uning nutqiy vaziyati, yoshi, jinsi, millati, salomatligi va ruhiy holati ham ahamiyatlidir.

**Asosiy qism.** Psixolingvistika matndagi hissiyotlilik (his-tuyg'ularni yetkazish qobiliyati) xususiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Matnning bunday xususiyati insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini o'ziga xos pafos bilan ifodalaydi. Qahramonning hissiy kechinmalari va uning ruhiy holati muallifning nutqiy vaziyat uchun tanlagan til birliklariga bog'liq bo'lib qoladi.

Ushbu maqolada insonlarning nutqiy jarayonlarini psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishda badiiy matnlarga tayanildi. Turli asarlardan olingan parchalar asosida matnning psixolingvistikasi – matn uni idrok etuvchilar ongida qanday mavjudligini o'rganishga harakat qilindi. Jumladan, Mario Pyuzoning “Cho'qintirgan ota” asaridan keltirilgan parcha asosida asar qahramonlaridan birining nutqiy qobiliyati, uning xarakteri va ruhiy holatini o'rganishga urinib ko'ramiz:

– *Sizdan butun kuchingizni, mahoratingizni ishga solishni iltimos qilaman. Onasi uni shunday holda ko'rishini istamayman....(Don qo'lini uzatib, bir necha daqiqa Bonaseraga suyanib qoldi). O'g'limni ne ahvolga solishganini ko'ryapsanmi [6,371]?*

Don Karleoning nutqidan keltirilgan ushbu parcha orqali o'g'lidan dahshatli tazda judo bo'lgan ota qiyofasini ko'rish mumkin. Biroq, bu nutqning boshqa otalar nutqidan farqi shundaki, unda ortiqcha g'azab, alam, dard kabi tuyg'ularni ifodalovchi til birliklari uchramaydi. Aksincha, nutqda qo'llangan “iltimos qilaman”, “bor kuchingiz va mahoratingiz” kabi birliklarning qo'llanishi qahramonning nihoyatda aqlli va mulohazali shaxs ekanligidan dalolat beradi. Uning suhbatdoshiga dastlab “siz” deb murojaat qilishi o'zaro kommunikatsiya jarayonida talab etiladigan nutq odobining yuksak namunasini ko'rsatsa, nutq so'ngida “ko'ryapsanmi” fe'li orqali suhbatdoshini *sensirashi* esa barcha dard-hasratini ichida yashirishga urinayotgan, farzand dog'ida adoyi tamom bo'layotgan – ota qiyofasini yaqqol aks ettiradi.

Ma'lumki, nutq – insonning fikrlari va his-tuyg'ularini boshqalarga yetkazish imkoniyatidir. Aloqa vositasi sifatida nutq tufayli insonning shaxsiy ongi, shaxsiy tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan boyitiladi hamda kuzatuv va nutqdan tashqari boshqa jarayonlarga qaraganda, to'g'ridan-to'g'ri bilish amalga oshiriladi. Nutq orqali bir kishining psixologiyasi va tajribasi boshqa odamlar uchun mavjud bo'lib, ularni boyitadi, rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Umuman olganda, matnni psixolingvistik tahlil qilish badiiy matnning mavzulari, g'oyalari va yozuv uslubi haqida tushunchaga ega bo'lish uchun foydali vosita bo'lishi mumkin. Muallifning tildan foydalanishidagi qonuniyatlarni aniqlash orqali biz matn va uning mazmunini chuqurroq tushunishimiz mumkin. Badiiy matnning psixolingvistik tahlili badiiy asardagi ma'no va mavzularni, qahramonning nutq vaziyatiga munosabati va hissiylikini yetkazish uchun tildan foydalanishni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Asarning mavzulari va g'oyalari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun matnda ishlatilgan so'z va iboralar, ular anglatayotgan mazmun-mohiyat bilan birga muallifning qahramon xarakteri va nutq vaziyatiga mos birliklarni o'rganish orqali muallifning yozish uslubini tekshirishni ham o'z ichiga oladi.

O'z mohiyatiga ko'ra, psixolingvistika odamlarning muloqot qilish uchun, o'z fikrlari hamda hissiy munosabatlarini ifoda etish uchun tildan qanday foydalanishi va tilni ularning ongida qay tarzda qayta ishlashi bilan shug'ullanadi. Adabiy tahlilga bunday yondashuv esa matnda qo'llanilgan so'z va iboralarni o'qish va tushunish bilan bog'liq kognitiv jarayonlar haqida tushunchaga ega bo'lishni o'z ichiga oladi. So'z va iboralarning kontekstini hamda ularning shu kontekstda ifodalagan ma'nolarini o'rganish orqali biz matnni tushunish bilan bog'liq aqliy jarayonlar haqida tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin.

Adabiy asarlarda muallifning qahramonlar fe'l-atvori, ularning nutqiy qobiliyatlari hamda nutqiy vaziyat omillarini kitobxonga qay darajada aniq va maqsadli yetkaza olishi muallifning so'z qo'llash mahoratiga bog'liq bo'lib qoladi. So'z va iboralarning qahramon xarakteriga bog'liq holda tanlanishi ushbu qahramonni yanada yaqindan tanish va matnni tushunish imkonini beradi. Quyida Said Ahmadning "Ufq" romani qahramonlaridan biri – Ikromjonning nutqidan olingan parcha orqali uning xarakteri, nutqiy vaziyati va ruhiy holatini tahlil qilishga harakat qilib ko'ramiz:

*– Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi! Nomard! Ona qabrga qo'yilayotganda ko'rib turib yoniga borolmagan, oqpadar! O'z qo'li bilan tuproqqa qo'yishdan qochgan yaramas! Onang qandoq xotin edi-ya! Sen juvonmargga qandoq mehr qo'ygan edi-ya! Sen uni o'ldirding! O'zing o'ldirib, yana o'zing uni tuproqqa qo'yganlarini tomosha qildingmi? Iflos![5,431]*

Ushbu parcha orqali muallif butun matnni yaratishda gapning ifoda maqsadiga ko'ra *his-hayajon gaplardan* foydalaniganing guvohi bo'lamiz. Bu qahramonning ruhiy holati bir maromda emasligidan dalolat beradi. U butun nutqini yuqori asabiylik va og'ir bosim ostida ifodalaganini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari matnda qo'llangan *o'ldirmoq, qabr, tuproqqa qo'ymoq* kabi birliklar orqali qahramonning o'tmish xotiralarini, qayg'u va iztirobini; *nomard, oqpadar, juvonmarg, yaramas, iflos* kabi birliklar esa qahramon ruhiyatidagi qahr va g'azab, alamzadalik kabi ichki hissiyotlarni yuzaga olib chiqqan, deyish mumkin. Matndagi gaplarning tuzilishiga ahamiyat beradigan bo'lsak, barcha gaplar *sodda yoyiq* hamda *so'z gaplardan* tashkil topgan. Bu esa nutqiy vaziyatning o'ziga xosligini ta'minlashda va qahramonning ruhiy holatini ko'rsatishda ko'makchi bo'lib xizmat qilgan, deyish mumkin. Chunki, odatda, so'zlovchi shoshilgan vaziyatda yoki unda kuchli hayajon va asabiylik sodir bo'lganda murakkab gaplardan yoki qo'shma birliklardan foydalanmaydi. Sababi, unda buning uchun vaqt hamda xotirjamlik yetishmaydi. Bularning barchasi esa yuqoridagi nutqiy vaziyatda qahramon ruhiy holati asabiy va tezlashganligini anglashga ko'mak beradi.

– *Yot-begonalar tobutni yelkaga olib ketayotganlarini ko'rib chidab turdingmi? Yo'lingga termulib ko'r bo'lgan onaga shumi mukofot? Butun umrini, jonini, rohatini bag'ishlagan onaga shumi mukofot? ... Sening o'rningga it boqsak bo'lmasmidi?! Onaga vafo qilmagan bola kimga vafo qiladi?! Yurt ishiga yaramagan bola qay ishga yaraydi?! [5, 432]*

Odatda, biz nutqimizda ritorik so'roq gaplarni qarshidagi suhbatdoshdan javob olish maqsadida emas, balki o'z fikrimizni dalillash va tasdiqlatish maqsadida qo'llaymiz. Qahramon nutqidan keltirilgan navbatdagi nutqiy matn esa ritorik so'roq gaplardan tashkil topganligini ham shu bilan izohlash mumkin. Bu yerda qahramon o'zidagi savollarga javob olishni emas, aksincha, o'zidagi alamzadalikning, qahr-g'azabning behuda emasligiga ishonch hosil qilish maqsadida qo'llagan, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Psixolingvistikadagi yana bir muhim tushuncha leksik noaniqlik g'oyasidir. Ushbu g'oya qo'llanilgan so'z yoki iboralarning kontekstga qarab bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin bo'lgan hodisani ifodalab, tinglovchidan biroz ziyraklikni talab etadi. Masalan, *o't* so'zi "*olov, otash, alanga*" ma'nosi bilan birga "*ma'lum bir yo'nalishda harakatlanish*" yoki "*poyasi yog'ochlanmaydigan yashil o'simlik*" hamda "*jigardan ajralib chiquvchi sarg'ish-yashil rangli achchiq suyuqlik*" kabi ma'nolarni ham ifodalab kelishi mumkin. Ushbu holatda bu so'zlarning aynan qaysi ma'noni ifodalayotganiga uning kontekstdagi boshqa so'zlar bilan munosabatidan aniqlik kiritamiz.

Ushbu kontseptsiyani adabiy tahlilda muallifning matnda bir nechta ma'no va talqin qilish uchun tildan qanday foydalanishini tekshirish orqali ko'rib chiqish

mumkin. Masalan, “O‘tkan kunlar” hamda “Shaytanat” kabi ikki mashhur asar orqali kitobxonlarga tanish bo‘lgan “Siz o‘shami?!” birligi har ikki asarda ham bir xil mazmun-mohiyat kasb etmasligi ma’lum. Bunga quyidagi izohlar orqali aniqlik kiritishimiz mumkin:

*“Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi...Shu qarashda bir muncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinchiga yaqin keldi va esankirangan, hayajonlangan bir tovush bilan so‘radi:[3, 33]*

– *Siz o‘shami?!*

“O‘tkan kunlar” romanidan olingan ushbu parchada qahramonlarning eng totli va hayajonli lahzalaridan biri ifodalangan bo‘lib, muallif qo‘llagan “sekingina”, pinjiga yaqin keldi”, “hayajonlangan bir tovush” kabi birliklarning qo‘llanilishi qahramonlar o‘rtasidagi iliq munosabat bilan birga Kumushning baxtiyorlik va mumnuniyat kabi ruhiy holatini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Endi navbatdagi parchaga diqqat qaratamiz:

*“Zaynab seskandi. Ammo qo‘llarini tutqazmoqqa tirishmadi. Uning bilagini ushlagan qo‘l begona emas, tanish edi. Zaynab yovqarash bilan yalt etib dushmaniga qaradi, (ha, u yori emas, dushmani edi!) o‘rnidan turdi. Esankiragan, hayajonlangan bir tovush bilan so‘radi:[4, 245]*

– *Siz...o‘shami?!*

Tohir Malikning “Shaytanat” asaridan keltirilgan ushbu parchada esa Zaynab tilidan aytilgan ayni o‘sha so‘zlar endi kutilmagan bir baxtni emas, balki qahramonning qo‘rquvini, alamini ifoda etish uchun aytilgan. Muallif qo‘llagan “seskanmoq”, “yovqarash”, “yalt etib”, “esankiragan” birliklari qahramonning ayni shu holatini ko‘rsatish uchun xizmat qilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, badiiy matnning psixolingvistik tahlili tushunish, anglash bilan bog‘liq kognitiv jarayonlar haqida tushunchaga ega bo‘lish uchun qimmatli asos bo‘lib xizmat qiladi. Matndagi so‘z va iboralarning anglatayotgan mazmuni va kontekstni o‘rganish orqali biz matnni tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy jarayonlar va o‘quvchini muayyan g‘oyalar yoki mavzularni qayta ishlashga tayyorlash usullari haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR:

1. Белянин В.П. Психоллингвистика. Учебное пособие. – М.: Флинта, 2008. <https://hum.edu-lib.com/pedagogika-psihologiya/belyanin-v-p-psiholingvistika-uchebnik-onlayn>
2. Сафонова О.А. Психоллингвистика: новые технологии анализа поэтического текста. Учебное пособие. – Краснодар, 2012.
3. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – T.: Sharq, 2018.

4. Malik T. Shaytanat. <https://www.ziyouz.com/>
5. Ahmad S. Ufq. – T.: Sano-standart, 2016.
6. Pyuzo M. Cho‘qintirgan ota. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.
7. Yorievna, U. N. ., & Narzulloyevna, M. L. . (2024). Interpretation of the Image of Animals in Abdulla Oripov’s Poetry. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 40–45. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2478>
8. Uroкова, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. *Theoretical & Applied Science*, (8), 57-59.
9. Nafosat, U., & Quvvatova, D. (2019). An untraditional description style in the epos of Ikrom Otamurod. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 8(5 Special Issue 3), 396-399.
10. O‘roqova, N. (2024). SADRIDDIN AYNIIY USLUBIGA DOIR CHIZGILAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 47(47).  
извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/12188](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188)



MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>SADRIDDIN AYNII HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR</b>			
1.	Мурувватиён Чамила Чамол	Масъалаҳои матншиносии тарҷумаи романи «Дохунда»-и С.Айнӣ ба забони русӣ	7
2.	Умуров Ҳотам	Ёзувчи ва қаҳрамон сирӣ	23
3.	Ҳасанов Шавкат Аҳадович	Тарих ва тақдир	28
4.	O'rayeva Darmon Saidaxmedovna, To'rayeva Iroda Sheramatovna	Sadriddin Ayniy asarlarida to'y mavzusi va tasviri	34
5.	Тоҳирова Сарвиноз Хусеновна	Вклад русских ученых-востоковедов и литераторов в исследование персидско-таджикской литературы	40
<b>FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI</b>			
6.	Quvvatova Dilrabo Xabibovna, Safarova Hilola Oxunjonovna	Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari	48
7.	Rajabova Ma'rifat Baqoyevna, Ibotova Madina Otabek qizi	Jon va ruh haqidagi ilohiy-irfoniy, falsafiy qarashlar, ularning badiiy ijoddagi in'ikosi	54
8.	O'roqova Nafosat Yoriyevna, Imomova Shahinabonu Ilhom qizi	Erkin Vohidov lirikasida floristik obrazlar talqini	65
9.	Махмудова Робиябону Фурқатовна	Образ матери в повесте Уткира Хашимова “Дунёнинг ишлари”	71
10.	Хайриева Нargiza Ixtiyor qizi	O'tkir Hoshimovning “Yanga” hikoyasida milliy portret ifodasi	76

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

<b>11. Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Avliyoqulova Lola Bebutovna</b>	Badiiy matnning psixolingvistik tahlili	<b>81</b>
<b>12. Nazarova Saida Axmedjanovna</b>	So‘roq gap nutqiy muloqot birligi sifatida	<b>87</b>
<b>13. Нигматова Гулноз Хамидовна</b>	Zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi fitomorf metaforalar lingvopoetikasi	<b>94</b>
<b>14. Muqimova Gulnora Rashidovna</b>	Zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi fitomorf metaforalar lingvopoetikasi	<b>101</b>
<b>15. Abdulxayrov Dilshod Pulatovich</b>	Die stadtführung als aktivität der wissensvermittlung	<b>108</b>

**RETRO**

<b>RETRO</b>	Садриддин Айний. “Эсдаликлар”	<b>114</b>
--------------	-------------------------------	------------

**FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR**

<b>FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR</b>	Yosh olimlar minbari	<b>117</b>
---	----------------------	------------